

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O‘RNI

Xushvaqov Anvar Boqiyevich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Maqolada kambag‘allik tushunchasiga ta’rif berilgan, mintaqada kambag‘allikni qisqartirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati, shart-sharoitlari, tamoyillari, xorij tajribasi va undan samarali foydalanish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, kambag‘allik darajasi, ishsizlik, qashshoqlik.

Аннотация

В статье дается определение понятия бедности, описываются условия, принципы, зарубежный опыт и пути его эффективного использования в деле снижения бедности в регионе, значение малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: бедность, сокращение бедности, уровень бедности, безработица.

Abstract

The article defines the concept of poverty, describes the conditions, principles, foreign experience, and ways of its effective use in reducing poverty in the region, highlighting the importance of small business and private entrepreneurship.

Keywords: poverty, poverty reduction, poverty rate, unemployment.

KIRISH

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash, ish haqi va boshqa pul daromadlarining bosqichma-bosqich oshib borishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. O‘z navbatida, aholi pul daromadlarining o‘ssishi uning xarid qobiliyatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholining moddiy farovonligi, jismoniy sog‘ligi va oziq-ovqat xavfsizligini saqlashning yuqori cho‘qqisiga erishish, belgilangan maqsadlarni to‘laonli amalga oshirish bilan bog‘liq kafolatlarni yuzaga keltirish uchun siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy mukammal sharoitlar yaratish bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy mezoni hisoblanadi. Shu bilan birga, aholining ish o‘rinlari bilan ta’minlanishi yoki daromad manbalarini shakllantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish iqtisodiyotimizdagi yechilishi zarur ustuvor masalalardan biridir.

Aholining turmush tarziga tegishli muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan yangicha yondashuvlar korxona (tashkilot, firma, kompaniya)dagi mehnat munosabatlari, mehnatga haq to'lash shakllarini tartibga solish, xodimlar xizmatlarini baholash, ish haqi va umuman ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tizimlashtirish kambag'allik darajasining kamayishiga bevosita ta'sir qiladi.

Har bir sohada ishlab chiqarish jarayonining texnik va texnologik jihatdan yangilanishi, undan yaratiladigan moddiy boyliklarning inson yashaydigan predmet dunyosining sifat jihatdan keskin o'zgarishi va yangilanishiga olib keladi. Bu esa butun hayot tarzining o'zgarishi va yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ana shu ehtiyojlarni to'liq qondira olmaslik, ayniqsa, asosiy moddiy ehtiyojlarga topgan daromadning 50 foizdan ko'prog'ini sarflash, jamg'arma bo'lmasligi kambag'allik va qashshoqlik tushunchalarini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda kambag'allik darajasi mezonlarini aniqlash va oldini olish bo'yicha takomillashgan tizimni, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini va amalga oshirish mexanizmlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda, keng ko'lamli jarayonlarni bajarishga erishish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D. Rikardo, R. Solou, A. Sen, A. Ditont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti laureatlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan. Ushbu tadqiqotlarda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishi nazariy jihatdan isbotlangan [3].

MDH mamlakatlaridan N. I. Baranets, I. V. Barbashin, O. I. Vitkovskaya, D. A. Volkov, T. A. Gurko, S. O. Kalendjyanlarning hamda o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Q. X. Abdurahmonov, Sh. R. Xolmo'minov, R. F. Djumanova, N. M. Ibragimova, M. Z. Muxitdinova, B. Pardayeva, K. S. Saidov, P. Z. Xashimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag'allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan [4].

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida monografik kuzatuv, tizimli yondashuv, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda oilaviy firmalar jamiyat farovonligi va rivojlanishining asosini tashkil etadi. Ishlab chiqariladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning kattagina qismi aynan ularning zimmasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, kichik oilaviy biznesni rivojlantirish mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Hatto eng kichik bo'lsa-da, o'z biznesiga ega bo'lgan oilada intilish uchun maqsad, farzandlarini o'stirish sababi va meros qilib qoldiradigan narsalar mavjud bo'ladi. Shunday qilib, mamlakatda asta-sekinlik bilan o'zi uchun ishlay oluvchi va shu bilan

bir vaqtda davlatga ham salmoqli daromad keltiruvchi mulkdorlarning o'rta sinfi shakllanadi. O'rta sinf — jamiyatning ijtimoiy va siyosiy barqarorligining asosi hisoblanadi (1-jadval). 1-jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik sohasi 2011–2021-yillar davomida ijobiy o'zgarishlarga erishgan. Sanoat sohasi bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati 2021-yilda 2011-yilga nisbatan 8,96 barobarga, 2020-yilga nisbatan esa 1,18 barobarga oshgan. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar soni 2021-yilda 2011-yilga nisbatan 1,16 barobarga, 2020-yilga nisbatan esa 1,06 barobarga o'sgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkichlar	2011	2015	2017	2019	2020	2021	2021/2011	2021/2020
Sanoat (mlrd.so'm)	13586,8	39643,5	61367,8	83344,2	103020,8	121719,2	8,96	1,18
Qurilish (mlrd.so'm)	6188,3	16954,0	22469,4	53960,9	63866,6	77762,0	12,57	1,22
Bandlik (ming kishi)	8950,7	10170,4	10541,5	10318,9	9865,7	10418,3	1,16	1,06
Savdo (mlrd.so'm)	2474,9	61972,3	92973,0	138920,7	164106,3	249493,3	10,08	1,52
Yuk tashish (mln.tonna)	292,0	47269,6	548,8	641,0	638,9	678,9	2,33	1,07
Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	6894,3	9225,1	10444,4	12152,3	12304,6	13108,6	1,90	1,07

Kambag'allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlik sohasida band tadbirkorlik subyektlari ko'pincha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etishga urinishlari bilan tavsiflanadi. Ularning faoliyat strategiyasi asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- Yuqori texnologiyali rivojlanayotgan firmalar raqobat kurashida faol bo'lishdan manfaatdor emas. Shu sababli ular bozordagi yuqori foyda keltiradigan bo'shliqni egallashga harakat qilib, tor darajada ixtisoslashgan mahsulot ishlab chiqarishga intiladilar.

- Bunday tadbirkorlik subyektlari, masalan, elektronika bilan shug'ullanuvchi firmalar, yirik korxonalardan butlovchi qismlarni sotib olish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga intiladilar.

- Ko'pchilik firmalar ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirish maqsadida yo bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga, yoki bir turdagi texnologiyaga ixtisoslashadilar. Ular ana shu mahsulot yoki texnologiyani iste'molchilarning talabiga moslashtirishga harakat qiladilar. Deyarli barcha kichik korxonalar mustaqillikni saqlab qolishga intilib, tashqaridan mablag' jalb qilmaslikka harakat qiladilar.

Mutaxassislarning fikricha, kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlanib borishi bilan mustaqillikka va o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga harakat qiladilar.

Masalan, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda odamlarni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarini ishlab chiqish va kasbga o'qitishda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyonlangan

nodavlat tashkilotlari faolligini kuchaytirishga ehtiyoj katta. Kasanachilik mehnat turini rivojlantirish kerak. Bunda zamonaviy mashinalar, uskunalar, xomashyo va materiallarni xarid qilish uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. Kasanachilarga buyurtmachilar topishda, tadbirkorlik subyektlari bilan kooperatsiyani kengaytirishda ko'maklashish kerak.

Shuningdek, ishga joylashishga muhtoj shaxslarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kengaytirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqbul shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan choralar ko'rish zarur.

Aholi real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun ijtimoiy mehnat taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali jon boshiga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini, ya'ni mehnat unumdorligini keskin oshirish lozim.

Kambag'allik holatida yoki chegarasida yashayotgan aholi qatlamini qashshoqlikdan chiqarish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar va aholi tomorqalaridan maqsadli foydalanishda mikroklaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kambag'allikni qisqartirish maqsadida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi mavjud muammolarni samarali hal etish uchun Respublika hukumatining ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday konsepsiyaning asosida nomutanosibliklarni bartaraf etish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga imkon beruvchi tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qashqadaryo mintaqasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Mintaqada kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish; xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini joriy etish; ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari va me'yoriy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

- Har bir mahalla kesimida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi tomonidan fuqarolarning yashash sharoitlari va ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib, yashash minimumi va minimal iste'mol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish; aholi daromadlari tabaqalanishini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish va ularni davlat maqsadli dasturlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash.

- Aniqlangan ijtimoiy ahvoli nochor aholi qatlamlarining shakllangan ro'yxati asosida, ularning har birida qanday imkoniyatlar mavjudligini o'rganish va shunga asoslangan holda kambag'allikni tugatishga yo'naltirilgan aniq manzilli yondashuvlarni ishlab chiqish.

- Mintaqada mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirish; mehnat resurslarini taqsimlash borasida muvofiqlikni ta'minlash barobarida aholining o'zini o'zi band qilish tamoyilini joriy etish orqali bandlik muammosini hal qilishga kirishish.

- Viloyat miqyosida va uning barcha hududlarida, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordagi daromadlar darajasini ishlab chiqish va joriy qilishni tezlashtirish.

- Mahallalar tomonidan ro'yxatga olingan kambag'al va ishsiz aholi qatlamlari, ayniqsa ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish; ularning mehnat faolligini oshirish va kasbiy ta'lim bo'yicha mahalliy ehtiyojlardan kelib chiqib, byudjet hisobidan o'quv kurslarini tashkil etish va ularni kasbga tayyorlash ishlarini jadallashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // 30.12.2020. 10:00.10.3K. <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistanashavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>.

2. Deaton A. (2013). *The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality*. Princeton, N.J.: Princeton University Press.

3. Q. X. Abdurahmonov, Sh. R. Xolmo'minov. *Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi*. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004-y.

4. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotnomasi.

5. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni, 2012-yil 26-aprel. // *Xalq so'zi*, 2012-yil 27-aprel.

6. Ibragimova N. M. "Aholi iste'molini makroiqtisodiy takomillashtirish." Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2019-y.

7. Mustafoqulov Sh. I. "Kambag'allik ayb emas, biroq ..." *Xalq so'zi* gazetasi, 2020-yil 25-mart.

8. Sen A. (1981). *Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation*. Oxford: Clarendon Press.

9. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar. *Ekonomika i sotsium*, (3-2 (106)), 255–262.

10. Jo'rayev, F. (2021). Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqboldagi muammolari va ularni ekonometrik modellashtirish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (4), 377–385.

11. Maxmatqulov, G. O. X. (2023). "Kompyuter tizimlari va tarmoqlari" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda virtual Cisco Packet Tracer dasturidan foydalanish. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 483–486.

12. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 245–250.